



TANQIDIY NAZAR, TAHLILYI TAFAKKUR VA INNOVATSION G‘OYALAR



BO’LAJAK O’QITUVCHILARNING NUTQIY SAVODXONLIK KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISH METODIKASI

Juraeva N. Sh.

Pedagogue of Tashkent State Pedagogical University named after Nizami and Tashkent International University of Education.

Annotatsiya: Mazkur maqolada ona tili darslarining sifat va samaradorligini oshirishda nutqiy kompetensiyaning ahamiyati tahlil qilinadi. O‘quvchilarning og‘zaki va yozma nutqini rivojlantirish, ularning fikrlarini aniq, izchil va mantiqiy ifoda eta olish ko‘nikmalarini shakllantirish muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Shuningdek, maqolada kommunikativ yondashuv, interfaol metodlar va zamонавиy pedagogik texnologiyalardan foydalanish bo‘yicha tavsiyalar beriladi.

Kalit so‘zlar: ona tili ta’limi, nutqiy kompetensiya, kommunikativ yondashuv, interfaol metodlar, pedagogik samaradorlik

Аннотация: В данной статье анализируется значение речевых компетенций в повышении качества и эффективности уроков родного языка. Развитие устной и письменной речи учащихся, формирование навыков четкого, последовательного и логичного выражения мыслей являются важными задачами. Кроме того, в статье рассматриваются рекомендации по использованию коммуникативного подхода, интерактивных методов и современных педагогических технологий.

Ключевые слова: обучение родному языку, речевая компетенция, коммуникативный подход, интерактивные методы, педагогическая эффективность.

Abstract: This article examines the importance of speech competencies in enhancing the quality and effectiveness of native language lessons. Developing students’ oral and written speech, as well as their ability to express thoughts clearly, coherently, and logically, is a key objective. The article also provides recommendations on the use of communicative approaches, interactive methods, and modern pedagogical technologies.

Key words: native language education, speech competence, communicative approach, interactive methods, pedagogical effectiveness

Ona tili darslarining sifat va samaradorligini oshirishda nutqiy kompetensiyalarning o‘ziga xos o‘rnini muhim sanaladi. Mavzuga doir mashqlar topshirig‘ini mustaqil bajarish, mashq tarkibida gaplardan va matnlar mazmunidan to‘g‘ri xulosa chiqarish, tinglab tushunish orqali matndan anglashiladigan asl g‘oya mazmunini qayta hikoya qilish va adabiy til me’yorlariga asoslanib so‘zlab berish hamda yozish, o‘z nutqini og‘zaki va yozma shaklda erkin ifodalashi zaruriyidir.

Zero, “Yoshlarimizning mustaqil fikrlaydigan, yuksak intellektual va ma’naviy salohiyatga ega bo‘lib, dunyo miqyosida o‘z tengdoshlariga hech qaysi sohada bo‘sh kelmaydigan insonlar bo‘lib kamol topishi, baxtli bo‘lishi uchun davlatimiz va





TANQIDIY NAZAR, TAHLILYI TAFAKKUR VA INNOVATSION G‘OYALAR



jamiyatimizning bor kuch va imkoniyatlarini safarbar etamiz”²⁵ , -deb e’tirof qilinishi nutq o’sirish metodikasi oldiga ta’lim jarayonining subyektlarini jahon yoshlari bilan raqobatlasha oladigan, turli informatsiyalarni tinglab tushunadigan, ma’lum fikrini ma’noli ifodalab, aniq, sermazmun so’zlab yetkazadigan va diqqat bilan o‘qish qobiliyatlariga ega bo‘lgan hamda yozish jarayonida orfografik qoidalarga amal qiladigan, turli ma’lumot va axborotlarni o‘qib kerakli xulosani chiqaradigan, o‘z pozitsiyasiga ega bo‘lgan kuchli raqobatbardosh bilim egalari qilib tarbiyalashdek dolzarb va muhim vazifani qo‘yadi.

Shuningdek, B.To‘xliyev, M.Shamsiyeva, T.Ziyodovalarning “O‘zbek tili o‘qitish metodikasi” qo‘llanmasida: “Ona tili mashg‘ulotlari nutq san’atini egallash va undan samarali foydalanish bilim, ko‘nikma va malakalarni tarbiyalaydi. Shu jarayonda nutqiy madaniyat shakllanadi. Nutq madaniyati yoshlarga kundalik oddiy salomlashishidan kimga?, nimaga?, qachon?, qaerda?, qanday? so‘zlashgacha bo‘lgan muomala-muloqot sirlarini o‘rgatadi; sharqona odob-andisha, go‘zal qiroat san’ati qonuniyatlarini anglab borishda ham katta ahamiyat kasb etadi”²⁶ , - deyiladi. Shunisi ayonki, ona tili darslarida eng asosiy vazifa – bu o‘quvchilarning nutq madaniyatini, nutqiy ko‘nikmalarini, mustaqil, ijodiy, mantiqiy fikrlashini o’sirish va turli nutqiy vaziyatlarlarda purma’no, o‘rinli so‘zlar ishlatib kommunikatsiyadagi ishtirok etishini rivojlantirishdir.

Professor Sh.Yusupovaning ta’kidlashicha, ona tili darslarida o‘quvchilarning og‘zaki va yozma nutqini o’sirish bo‘yicha “Sharhlash usuli”ni qo‘llashdan turli maqsadlar ko‘zlanishi nazarda tutiladi.

1.Sharhlash ona tili bo‘yicha o‘tilgan nazariy ma’lumotlarni idrok qilishga yordam beradi.

2.Sharhlash nazariy ma’lumotlarni amaliyotda qo‘llashni bildiradi. 3.Og‘zaki nutqni o’sirishga yordam beradi.

4.Orfoepik va orfografik normalar munosabatlarini muvofiqlashtiradi.

5.Butun dars jarayonida o‘quvchilarda nazariy ma’lumotlar ta’kidlanadi”²⁷.

Metodist olima to‘g‘ri qayd etganidek, ona tili darslarida o‘quvchilar nazariy ma’lumotlarni sharhlashi natijasida to‘g‘ri so‘zlash, nutq texnikasiga muvofiq talaffuz qilish va adabiy til me’yorlariga amal qilib to‘g‘ri yozishdagi ko‘nikma va malakalari, dars davomida o‘rgangan bilimlarining amaliyotga tatbiq etish darajasi sinovdan o‘tadi.

Metodist olima to‘g‘ri qayd etganidek, ona tili darslarida o‘quvchilar nazariy ma’lumotlarni sharhlashi natijasida to‘g‘ri so‘zlash, nutq texnikasiga muvofiq talaffuz qilish va adabiy til me’yorlariga amal qilib to‘g‘ri yozishdagi ko‘nikma va malakalari, dars davomida o‘rgangan bilimlarining amaliyotga tatbiq etish darajasi sinovdan o‘tadi.

²⁵ Мирзиёев Ш. М. Эркин ва фаровон демократик Ўзбекистон давлатини биргаликда барпо этамиз. – Т.: Ўзбекистон.2016. – 14 б.

²⁶ Юсупова Ш. Она тили таълими самарадорлигини ошириш ва илғор педагогик технологияларни жорий этиш. Пед. Фан. Ном-ди дисс.- Тошкент:ТПДИ, 1998. -137 б.

²⁷ Юсупова Ш.Ж. Хозирги узбек адабий тили дарсларида ўқувчилар тафаккурини ўстиришнинг илмий-методик асослари: Пед. Фан доктори ...Дисс.- Тошкент: ТДПИ, 2005.-123 б 56-б.





TANQIDIY NAZAR, TAHLILYI TAFAKKUR VA INNOVATSION G‘OYALAR



G‘.Hamrayevning “Umumiy o‘rta ta’lim tizimida fonetikaga doir o‘quv materiallarining metodik ta’mintonini takomillashtirish” mavzusidagi ilmiy tadqiqot ishida ”Agar darsni tashkil etish, xususan, ona tili darslarida fonetika, orfoepiya, orfografiya mavzularini o‘qitish o‘qituvchining ixtiyoriga to‘liq topshirib qo‘yilsa, o‘quvchilarning adabiy talaffuz hamda imloga oid ko‘nikmasi bir xil bo‘lmasligi muqarrar. Talaffuz va imlo qoidalari esa bir xillikni taqozo etadi. Shu ma’noda o‘quvchilarda nutqiy savodxonlik kompetensiyani rivojlantirishni avtomatlashtirish masalasi juda dolzarb bo‘lib qoladi”²⁸ deyiladi. Ona tili darslarida nutqiy kompetensiyalarni rivojlantirish asosan ona tili o‘qituvchisining darsni yuqori saviyada tashkil etishi bilan bog‘liq. Nutqiy savodxonlik kompetensiyalar: tinglab tushunish, eshitish, o‘qish, yozish deyarli har bir ona tili darsida rivojlantirilib boriladi. Ona tili o‘qitishda o‘qituvchining eng asosiy vazifalaridan biri, o‘quvchilardagi hosil bo‘lgan nutqiy ko‘nikmalarlarning rivojlanish ko‘rsatkichini nazorat qilish va shu bilan bir qatorda o‘quvchilarda nutqiy kompetensiyalarning o‘sish darajalarining “oqsayotganini” aniqlash, interaktiv metodlardan foydalanish va bu borada ularning yo‘l qo‘ygan xato va kamchiliklari ustida muntazam ishlab bu kemptik o‘rinlarni o‘z vaqtida tuzatishdir. O‘quvchilarga so‘zlarning imlosi bo‘yicha imlo lug‘at bilan ishlashni, ko‘chirib yozish mashqlarini bajarishda o‘rganib, eslab qolishni uqtirish, so‘zlarning ma’noviy strukturasida izohli lug‘atlar bilan ishlash, omonim lug‘atlar bilan ishlashni o‘rgatishdir.

Buning uchun u darsning yakunlovchi qismida vaqt ajratsa, o‘qish va yozish mashqlariga alohida urg‘u bersa, nutqiy kompetensiyalar takomillashadi. Albatta, bu jarayon o‘qituvchidan birgina darslik bilan chegaralanib qolmasdan izlanishni, qo‘srimcha ilmiy adabiyotlar bilan ishlashni, zamonaviy va ilg‘or metodlardan foydalanishni talab qiladi. M.Mahmudovning fikricha, “yoshlarning fikrlashi, tafakkurini o‘stirish, xotirasi va qobiliyatlarini taraqqiy ettirish” o‘qitishning jamiyat rivojidagi bajarilishi lozim bo‘lgan muhim vazifalardan biri sanalishi e’tirof etiladi. Yoshlarning keng doirada fikrlashini, tafakkurini o‘stirish, ularning qobiliyatlarini rivojlantirish, ayniqsa, jamiyatda tub burilishlar, o‘zgarishlar hosil qilishda muhim ahamiyatga ega.

O‘quvchilarning nutqiy kompetensiyalarni rivojlantirishda o‘qituvchining darsga jiddiy yondashishi zarur ekanligi Sh.Sariyevning tadqiqot ishida yoritilgan. O‘qituvchining o‘qish namunasiga ko‘ra o‘quvchilar to‘g‘ri, ifodali o‘qishni o‘rganadi. Darsda matnni o‘qib berish uchun o‘qituvchi puxta tayyorgarlik ko‘rishi, mazmunni chuqurroq anglashga intilishi, matnning ayrim o‘rinlari qanday o‘qilishi lozimligini belgilab olishi lozim. O‘qituvchi ayrim tovush, bo‘g‘in, so‘zlarni qanday o‘qish kerakligini izohlagach, o‘quvchilar matnni navbat bilan o‘qishadi. O‘qituvchi ularni kuzatib, to‘g‘rilab boradi. O‘qituvchi so‘zni risoladagidek o‘qishni, so‘zlarni o‘qish vaqtida intonatsiya va urg‘uga e’tibor berishni, jumlalarning tarkibidagi leksik birliklar tiniq, ravon talaffuz qilishni o‘rgatsa, o‘quvchilarning o‘qish texnikasini egallash faoliyati aktiv holatga o‘zgaradi. O‘qish

²⁸Хамраев Ф.Х. Умумий ўрта таълим тизимида фонетикага доир ўкув материалларининг методик таъминотини такомиллаштириш: пед. фан. док. (PhD) дисс. – Самарқанд: 2019. – 56 б.





TANQIDIY NAZAR, TAHLILYI TAFAKKUR VA INNOVATSION G‘OYALAR



texnikasini egallashda takror o‘qish samara beruvchi nutqiy faoliyatdir. Bir marta o‘qilgan matn o‘quvchida yetarlicha tushuncha va bilim hosil qilmasligi mumkin. O‘qish faoliyatining qiziqarli tashkil qilinishi ularning chuqur bilim egallashga yo‘naltiradi. Muntazam kitob o‘qish, ilmiy, badiiy adabiyotlarni mutolaa qilish muayyan motivlarni o‘zida tarkib toptiradi.

Binobarin, o‘quvchilarning nutqiy savodxonlik kompetensiyalarini rivojlantirishda yuqorida bildirilgan fikrlardan kelib chiqib quyidagi omillarni keltirish mumkin:

- o‘quv dasturida berilgan mavzular bo‘yicha bilim, ko‘nikma va malakalarni hosil qilish;
- o‘quvchilarning lingvistik kompetensiyalarini rivojlantirish;
- mashq va topshiriqlarni bajartirish orqali nazariy bilimlarini mustahkamlash va nutqini o‘stirish;
- ona tili darsligida berilgan matn va lug‘at ustida ishlashni muntazam olib borish;
- ona tili mashg‘ulotlarida ilg‘or texnologiyalar va zamonaviy metodlar asosida bog‘lanishli matn tuzish va yozish malakalariga e’tibor qaratish;
- ilmiy qarashlarga va badiiy ifodalarni izohlab, ularga subyektiv munosabat bildirish va mantiqiy fikrlash ko‘nikmasini rivojlantirish.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Pedagogika Ensiklopediya (1 jild). O‘zbekiston Milliy Ensiklopediyasi. –Т.: 2015. - 321 b.
2. Аверин, В. А. Психология детей и подростков [Текст]: учебн. пособие изд. 2-е перераб. и доп / В. А. Аверин. - М.: 2001. – 230 с.
3. Аксарина, Н. М. Воспитание детей раннего возраста [Текст] / Н. М. Аксарина. - М.: 2012. – 232 с.
4. Бельтюков, В. И. Об усвоении детьми звуков речи [Текст] / В. И. Бельтюков. - М.: Изд – во АПН РФ, 2002. – 132 с.

